QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.165

BUYUK IPAK YO'LI: SAJDAGOH KABI MUQADDAS YURT
(Yoxud mashhur «G‘arbga sayohat» asari qahramoni Syuanszang yurtimiz ziyoratiga kelgani haqida)

Musurmanov Erkin Rabbimovich
SamDCHTI “Qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasi mudiri
filologiya fanlari doktori
+998870252992

Annotatsiya: Maqolada xitoylik sayyoh va buddaviy rohib Syuanszangning Markaziy Osiyoga safari tarixiy va adabiy manbalar asosida yoritiladi. Uning “Buyuk Tan davrida G‘arbiy o‘lkaga sayohat” asaridagi ma’lumotlar orqali Samarqand, Toshkent va Termizning qadimgi madaniy-ma’rifiy hayoti, diniy an’analari hamda Buyuk ipak yo‘lidagi tarixiy o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Buyuk ipak yo‘li, Syuanszang, Samarqand, “G‘arbga sayohat”, buddaviylik, madaniy aloqalar, tarixiy manbalar.

Аннотация: В статье на основе исторических и литературных источников рассматривается путешествие китайского буддийского монаха Сюаньцзана по Центральной Азии. По материалам его сочинения «Записки о западных странах эпохи Великой Тан» анализируются культурно-просветительская жизнь, религиозные традиции и историческая роль Самарканда, Ташкента и Термеза на Великом шёлковом пути.

Ключевые слова: Великий шёлковый путь, Сюаньцзан, Самарканд, «Путешествие на Запад», буддизм, культурные связи, исторические источники.

Abstract: The article examines the journey of the Chinese Buddhist monk Xuanzang through Central Asia based on historical and literary sources. Drawing on his Great Tang Records on the Western Regions, it analyzes the cultural and intellectual life, religious traditions, and historical significance of Samarkand, Tashkent, and Termez along the Great Silk Road.

Keywords: Great Silk Road, Xuanzang, Samarkand, Journey to the West, Buddhism, cultural relations, historical sources.

1570-yilda mashhur xitoy adibi U Chen-enning (1500 – 1582 y.) tomonidan yozilgan “G‘arbga sayohat” [1,175] romani o‘zbek muxlislariga ko‘proq shu nomli kinoasar orqali yaxshi tanish. Teletomoshabinlar asarni osmon saltanatining itoatsiz vakili, maymunlar shohi

Sun U-kun, o‘lmas cho‘chqa Chju Ba-je, qumlar hukmdori Sha Sen va ularning ustozi, rohib Syuanszang orqali yaxshi bilishadi. Asar qahramoni Syuanszang (玄奘, Xuánzàng, «G‘aroyib baqaloq») asli tarixiy shaxs (602-664) bo‘lib, u- piligrim, xitoylik budda rohibi, alloma, sayyoh va tarjimon sifatida mashhur bo‘lgan. Qiziq tomoni shundaki, mahalliy ellarning tilini yaxshi bilgan Syuanszang Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Termiz kabi yurtimiz shaharlarini ziyorat qilgan, bilim olgan, muhim tarixiy ma’lumotlarni yozib qoldirgan ekan. Syuanszangning bu yerlarga kelishi sabablari bor edi. Manbalarning guvohlik berishicha, Budda ta’limoti qadimgi Xitoyga milodiy I asrlarda aynan “G‘arb tomon”- yurtimiz allomalarining faoliyati tufayli kirib borgan.

27 yoshli xitoylik buddaviy rohib Syuanszang tush ko‘radi. Tushni ta’bir qilgan ustozlar unda ilohiy da’vat [2, 114] borligini anglashadi va unga ko‘ra Syuanszang Samarqand va Hindiston ziyoratiga otlanadi. Bu vaqtda Xitoy urush holatida bo‘lib, fuqarolarning chetga chiqishiga ruxsat yo‘q edi. Imperator Tay-szun (太宗, 626–649) qarshiligiga qaramay, rohib Gebi cho‘li orqali Turk xoqonligi chegarasiga o‘tib, dastlab Qumul, so‘ng Turfon kentiga keladi. Turfon xoni budda dini vakili bo‘lib, rohibni zo‘r hurmat bilan qabul qiladi. Syuanszangning bilimi va intilishlari, uning Sharq madaniyatining o‘chog‘i - Samarqand [3] ziyoratiga otlangani xonning hurmatini yanada oshiradi. Xon kuch bilan bo‘lsa-da Syuanszangni saroyida olib qolmoqchi va vaqti bilan o‘zi ham rohib sherikligida Samarqand ziyoratiga chiqmoqchi bo‘ladi.

Biroq rohib Turfonda qolishga rozilik bermaydi va ochlik e’lon qiladi. Xon noiloj o‘ttiz otga ortilgan safar anjomlari va yo‘l xarajatlari bilan Syuanszangni ta’minlab, yo‘lda turli muammolarga duch kelmasligi va tamg‘a boji (tamojnya) dan ozod qilish uchun uchun yorliq yozib, olis safarga kuzatib qo‘yadi.

Rohib Badal dovoni orqali Tyan-Shan tog‘idan oshib o‘tadi va Farg‘ona vodiysiga, u yerdan Issiqko‘lga, so‘ngra Chu vodiysidagi To‘qmoq shahriga borib 630-yili Xitoy bilan har tomonlama yaqin va do‘stona munosabatda bo‘lgan G‘arbiy turklarning Buyuk xoqoni bilan uchrashadi. Turfon xoni bergan yorliqni Syuanszang xoqonga taqdim etdi, xitoylik rohib xoqonda iliq taassurot uyg‘otdi. Syuanszangning niyatini anglagan xoqon Samarqand hukmdoriga yorlig‘ yozib, yonidan elchilar qo‘shib, uni katta izzat-ikrom bilan kuzatib qo‘yadi. Yo‘lovchilar O‘trorga, u yerdan Toshkentga o‘tadi.

Rohib Syuanszang o‘zining “Buyuk Tan davrida G‘arbiy o‘lkaga sayohat” (大唐西域记, Dà Táng Xīyù Jì) [4, 464] nomli 17 yillik Markaziy va Janubiy Osiyo bo‘ylab qilgan safari haqidagi esdalik asarida hozirgi O‘zbekiston hududi va undagi mahalliy ellar haqida qiziq va nihoyatda muhim ma’lumotlarni keltiradi. Unga ko‘ra Syuanszang Chjeshi (赭時) deb atagan Toshkentda bir muddat turadi. Sayyoh o‘z esdaliklarida qayd qilishicha, Toshkent 1000 li hududni egallagan bo‘lib, uning g‘arbida oquvchi She-She deb atagan Sirdaryo haqida ham ma’lumot beradi. Uning keltirishicha, bu daryo o‘z irmoqlarini Sun-lin tog‘ tizmasidan olib, goh sekin oqadi, goh shovqin solib, qaynab-toshadi. Toshkent atrofida bir qancha katta-kichik

shaharlar bo‘lib, ular o‘z oqsoqollariga ega bo‘lishgan va ularning barchasi turkiy hukmdorlarga bo‘ysunishgan. Toshkentlik olimlardan buddaviylik sir-asrorlarini o‘rgangan ulug‘ sayyoh sirli Samarqandga yo‘l oladi. Zero Samarqand va Termizdagi ulug‘ buddaviy ilm va ziyorat maskanlarining dovrug‘i allaqachon Uzoq Sharq mamlakatlariga yoyilib bo‘lgan edi. Buyuk ipak yo‘lida Samarqand Makka kabi ulug‘ sajdagoh maqomida edi, o‘zini ilmli, ma’rifatli deb bilgan, ilm o‘rganaman degan xitoylik, hind yoki grek qadim o‘tmishda ham bu kentni ziyorat qilishni sharaf deb bilgan.

O‘sha vaqtda Samarqand eli orasida budda ta’limoti vakillari va allomalari Toshkent, Samarqand va Termizda ko‘p edi.

Mirzacho‘l orqali 500 li (1 li-500 metr) bosib o‘tgan Syuanszang Samotszyan deb atagan Semizkent (Samarqand)ga tashrif buyuradi. Syuanszang bergan ma’lumotiga ko‘ra, Semizkent 1700 li hududda joylashgan bo‘lib, uning atrofi tabiiy to‘siq-tog‘larlar, suv havzalari bilan o‘ralgan. Shahar aholisining nufuzi katta bo‘lib, xitoydan tashqaridagi eng buyuk va qimmatbaho kitoblar, boyliklar aynan shu shaharda saqlanardi. Firdavsmonand Samarqand yeri nihoyatda unumdor va hosildor. O‘rmonlari qalin. Gul va mevalar to‘kin – sochin. Iqlimi mu’tadil. Bu mamlakatda nihoyatda ajoyib va chopqir otlar yetishtiriladi. Eli san’atkor va hunarmand, urf-udum va ma’naviyati eliga kuch va jasurlik ato etadi. Samarqand chet (Xitoydan tashqaridagi barcha) mamlakatlar uchun ilm va ma’rifat o‘chog‘idir. Samarqand eli ahloqiy xulq va odob qoidalariga ko‘ra qo‘shni va uzoq xalqlarga doimo o‘rnak va namuna bo‘lib kelgan. Xoqoni qo‘rqmas va jasur er bo‘lib, qo‘shni hududlar ham unga bo‘ysinadi. U juda kuchli qo‘shinga ega. Askari chjege (tche-kie, ya’ni jigit, yigit) deb atalib, ular tabiatan jasur va kurashchandir, o‘limni hursand bo‘lib qabul qiladi, jangga kirishsa hech kim ularga bas kelolmaydi.

Syuanszang Samarqandda ko‘plab allomalar bilan uchrashadi, zardushtiylik ta’limoti vakillari bilan bahs va suhbatda bo‘ladi, budda ta’limoti ustozlaridan o‘zining qiziqtirgan ko‘plab savollariga javoblar oladi. Samarqandda buddaviylik ta’limoti mahalliy dinlarning ezgu g‘oyalari bilan qorishiq tarzdagi umuminsoniy g‘oyalarga xizmat qiluvchi talqinlarining mavjudligi Syuanszangni qoyil qoldiradi. Biroq xitoylik alloma-sayyohning Uzoq Sharqqa dovrug‘i ketgan Samarqandning ikki buyuk va ulkan buddaviy ibodatxonasining sust faoliyati qoniqtirmaydi.

Samarqandni boshkent qilgan G‘arbiy-turk xoqoni Tongshixu buddaviy dinida edi. Tongshixu Syuanszangni Samarqandda katta hurmat va ehtirom bilan kutib oladi. Xoqon bilan sof uning ona tilida bo‘lgan suhbatda Syuanszang budda ibodatxonalari va o‘quv dargohlarining faoliyatini kuchaytirish, talabgorlar uchun yangilarini qurish taklifini beradi.

Xoqon va uning merosxo‘rlari xitoylik messioner-faylasufning maslahatiga ko‘ra nafaqat Samarqandda, balki Farg‘ona vodiysida ham yangi ibodatxona va universitet maqomidagi yangi ilm o‘choqlarini bunyod etdilar. Samarqandlik xoqon tashabbusi bilan bunday qurilishlar Talas daryosi atrofida, Chu daryosi vodiysida, Yettisuvda ham amalga oshdi. Syuanszang bergan ma’lumotlarga ko‘ra ko‘plab budda ibodatxonalari Qashqar va Baqtriya poytaxti Balxda keng rivojlandi. Ularning orasida, ayniqsa, Balxdagi Nava Vixara (Navbahor) universitet maqomidagi madrasasi mashhur bo‘lgan.

Sayyoh bir necha oy Samarqandda yashab, ma’rifat kasb etish bilan birga mahalliy xalq hayot tarzini o‘rgangan, Navro‘z bayramida, ko‘pkari, kurash musobaqalarida qatnashgan, so‘ngra Temir darvoza orqali Keshga, u yerdan Termizga o‘tgan, ming rohibdan iborat katta ulamolar jamoasini, budxonalarni ziyorat qilgan.

Syuanszang hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston va Shri-Lanka hududlarini ziyorat qiladi, 645-yili yigirma otga ortilgan 657 ta buddaviy kitob va Buddaning olti muqaddas haykali bilan Xitoyga kirib boradi. Boshkent Changanda katta tantana bilan kutib olingan rohib Imperator Tayszu tomonidan qahramon darajasiga olib chiqiladi. Imperatorning ko‘rsatmasiga ko‘ra Syuanszangga Xitoydan chiqmaslik haqidagi avvalgi farmoni bekor qilinib, 17 yil oldingi sana bilan unga Xitoydan chiqishga ruxsat berilganligi haqida buyruq chiqariladi.

Syuanszang chet elda nimalarni ko‘rgan-kechirgan bo‘lsa, ularning barchasini shogirdi Byansziga bir yil davomida aytib yozdirib chiqdi va natijada yuqorida so‘z yuritganimiz “Buyuk Tan davrida G‘arbiy o‘lkaga sayohat” nomli buyuk asar maydonga keldi. 120 ming iyeroglifni o‘zida jam qilgan asar Syuanszang bo‘lgan 110 o‘lkaning jug‘rofiyasi, iqlimi, ellari, tillari, tarixi, siyosiy va iqtisodiy hayoti, dini, madaniyati va udumlari haqida ma’lumot berdi [5, 15]. Syuanszang 664-yili ko‘plab shogirdlari va muxlislari davrasida vafot etdi.

Syuanszangning mazkur kundalik esdalik asari qadimgi Turon xalqlari tarixi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri bo‘lib qoldi. Kelgusida “Buyuk Tan davrida G‘arbiy o‘lkaga sayohat”asari va uning sharhlarini keng va jiddiy tarzda o‘rganish Buyuk kelajak sari dadil odimlayotgan O‘zbekistonimizning o‘tmishiga oid yangi sahifalarni ochishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 西游记 (Путешествие на Запад) // 颐和园长廊彩画故事全集(Полное собрание историй о цветных картинах галереи Чанлан Летнего дворца) (кит.) / 易明编著 (Составитель И Мин). - 3-е изд. - 北京 (Пекин): 中国旅游出版社 (Чжунго люйю чубаньшэ), 2024. - С. 175-200. - ISBN 978-7-5032-7359-9.
2. Никольская С. В. Буддийские мотивы в романе У Чэнъэня «Путешествие на Запад» (XVI в.) // Философские вопросы буддизма / отв. ред. В. В. Мантатов. - Новосибирск: Наука, 1984. - С. 114-123. - 128 с.
3. Вместе создать прекрасное будущее китайско-узбекских отношений. https://yuz.uz/index.php/ru/news/vmeste-sozdat-prekrasnoe-buduee-kitaysko-uzbekskix-otnosheniy
4. Сюань-цзан. Записки о западных странах [эпохи] Великой Тан (Да Тан си юй цзи). - М.: Восточная литература, 2012. - 464 с. - 800 экз. - ISBN 978-5-02-036520-9. (введение, перевод и комментарии Н. В. Александровой)
5. А. Рогачев. У Чэн-энь и его роман «Путешествие на Запад» // У Чэн-энь. Путешествие на Запад / Перевод с китайского, вступ. ст. и прим. А. Рогачева; перевод стихов под ред. А. Адалис и И. Голубева. - М.: Государственное издательство художественной литературы, 1959. - Т. 1. - С. 15.